



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



**“PSYCHOPREVENTION AND PSYCHOCORRECTION OF
DESTRUCTIVE FAMILY RELATIONSHIPS: PROBLEMS
AND SOLUTIONS” International Scientific-Practical
Conference**

**Международная научно-практическая конференция
“ПСИХОПРОФИЛАКТИКА И ПСИХОКОРРЕКЦИЯ
ДЕСТРУКТИВНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ:
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ”**

**“OILADA DESTRUKTIV MUNOSABATLAR
PSIXOPROFILAKTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusida xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiya**

MATERIALLAR TO'PLAMI



Termiz - 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**“OILADA DESTRUKTIV MUNOSABATLAR
PSIXOPROFILAKTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya
MATERIALLARI
2024-yil 19-aprel**

**МАТЕРИАЛЫ
международный научно-практической конференции по теме:
“ПСИХОПРОФИЛАКТИКА И ПСИХОКОРРЕКЦИЯ
ДЕСТРУКТИВНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ: ПРОБЛЕМЫ И
РЕШЕНИЯ”
19 апреля 2024 год**

**MATERIALS
international scientific and practical conference on the topic:
“PSYCHOPREVENTION AND PSYCHOCORRECTION OF
DESTRUCTIVE RELATIONSHIPS IN THE FAMILY: PROBLEMS
AND SOLUTIONS”
April 19, 2024**



Термиз-2024

UO'K: 159.9:316.362.1(08)

KBK: 88.5ya43

O-37

**“OILADA DESTRUKTIV MUNOSABATLAR PSIXOPROFILAKTIKASI
VA PSIXOKORREKSIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR”.**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Termiz: 2024-yil.

Mazkur to'plamda psixologiya sohasida respublikamizdagi taniqli olim va mutaxassislar, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlar, va bevosita ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar, umumta'lim maktablarining o'qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrlar hamda iqtidorli talabalarning zamonaviy psixologik tadqiqotlar: muammolar, yechimlar, istiqbollari, oila mustahkamligini ta'minlashda innovatsion-psixologik yondashuvlar, oilaviy munosabatlar destruktiviyasini psixologik tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari: psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya, ijtimoiy psixologik muammolarni bartaraf etishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari va ularning yechimiga doir taklif-mulohazalar o'z aksini topgan. Mazkur to'plam materiallaridan barcha turdagi ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrlar, talabalar hamda sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Anjuman materiallari Termiz davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2024-yil 13 apreldagi № 7 -bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul

X.G.Sharafutdinova – Psixologiya kafedrasi mudiri, dotsent

hay'ati a'zolari:

S.Almardanova, M.Sattorova

Taqrizchilar:

Qodirova A.B. – psixologiya f.f.d.(PhD), dotsent

Karayeva Yu.X. – psixologiya f.f.d.(PhD)

To'plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

ISBN: 978-9910-724-00-8

© “Oilada destruktiv munosabatlar psixoprofilaktikasi va psixokorreksiya: muammo va yechimlar”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami.

© “SURXON ILM NASHRI” nashriyoti, 2024-y.

SO‘Z BOSHI

**Abduqodir Hamidovich TOSHQULOV – Termiz davlat universiteti
rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Mamlakatimizda oilalar mustahkamligini, ularda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, orqali jamiyat farovonligini yuksaltirishda tizimli islohotlar amalga oshirilayotganligi bejiz emas. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: "Oilaga e'tibor – o'zligimizga e'tibordir" – deb aytgan so'zlari zahirida juda katta ma'no mujassam.

Bugungi kunda nazariy hamda amaliy fan sifatida shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI asr psixologiyasi oldida ko'pgina muhim masalalarni hal etish vazifasi turibdi. Ijtimoiy-madaniy jarayonlarda inson psixologiyasi, uning oilaviy munosabatlari, qadriyatlarini tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, ijtimoiy tuzilma sifatida oila instituti bilan bog'liq bir qator muammolarning jamiyatda yuzaga kelishi, jumladan, farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik, keksalarga nisbatan bepisand munosabatda bo'lish, nikohning zaiflashuvi, nikohsiz bolalar tug'ilishi sonining ko'payishi tendensiyasi kuzatilmog'ida. Bu esa shaxsda destruktiv munosabatlarga moyillikning ortib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, albatta. Alohida shaxsning oilaviy nizolarni yuzaga kelishidagi roli va uni bartaraf etishga nisbatan noadekvat munosabati natijasida jarayonlarning murakkablashuvi jamiyatga ta'sir etishi sababli oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni qadrlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarb muammo ekanligini tasdiqlaydi hamda bunday noxush holatlarning oldini olishda zaruriy chora tadbirlarni ko'rishni talab etadi.

O'zbekistonda oila instituti munosabatlarni konstruktiv asosda shakllantirish maskani sifatida zamonaviy o'zbek oilasining qiyofasi va uning ijtimoiy psixologik muhitini belgilash bugungi kunning muhim talabidir. Globallashtirish tendensiyasi hozirgi kunda oilaga, ayniqsa, kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Yosh va o'rta yosh oilalarda alohida yashash istagining kuchayishi, er-xotinning o'zaro xulq-atvorlariga nisbatan shartlarining haddan ortiq yuqoriligi, oila a'zolari o'rtasida o'zaro mehr, g'amxo'rlik o'rniga, bemehrlik, bepisandlik, ishonchsizlikning ustunligi, ajralish – oilaviy muammodan qutulishning yagona yo'li, deb qaralishi natijasida oiladagi munosabatlar zaiflashadi. Bu borada oilaviy munosabatlar destruksiyasini oldini olish va bartaraf etishda jahon psixologiyasida keng qo'llaniladigan samarali usullarni milliy mentalitetga moslashtirib foydalanish, oilalar bilan kognitiv psixoterapiya asosida ishlarni tashkil etish orqali oila muhitini barqarorlashtirish, oilaviy munosabatlarni konstruktiv asosda qurish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-son buyrug'i bilan 2024-yilda mamlakatimizda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy hamda ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga muvofiq 2024-yil 19-aprel kuni Termiz davlat universitetining 70 yillik yubileyiga bag'ishlangan "Oilada destruktiv munosabatlar psixoprofilaktikasi

va psixokorreksiyasi: muammo va yechimlar” mavzusida o‘tkazilayotgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma’lum ma’noda dolzarb muammolarning yechimiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ko‘tarilgan dolzarb muammolar ijtimoiy gumanitar fanlar vakillari bo‘lgan psixolog, faylasuf, pedagog, sotsiolog, demograflardangina iborat bo‘lmay, balki inson qadr-qimmatini uchun mas’ul bo‘lgan turli amaliy soha vakillarining ham diqqatini o‘ziga jalb etishi bilan ham ahamiyatlidir. Turli mamlakat vakillari, jumladan, AQSH, Hindiston, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Tojikiston davlatlaridan yetuk mutaxassislarning ushbu konferensiya ishida ishtirok etishlari diqqatga sazovordir.

Biz o‘zlarining bevosita ilmiy ma’ruzalari, maqola va tezlari bilan konferensiyaning qiziqarli va sarmazmun bo‘lishiga hissasini qo‘shgan barcha mutaxassis - olimlarga chuqur minnatdorchiligimizni bildirib, bundan keyin ham psixologiya fani va amaliyotining rivojlanishida samarali hamkorlikni davom ettirishlariga umid qilamiz.

XAVOTIRLI PSIXIK HOLATLARDA KOGNITIV PSIXOTERAPIYANI QO'LLASH VA TAHLILY DARAJASI

Normo'minova Dilafroz Erkinovna
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bugungi yangi O'zbekistonni qurishda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish dolzarb masala qatorida o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Kognitiv, psixoterapevtik, konatsiya, affekt, ryesidiv, farmakoterapiya, interpretatsiya, stimuly, Piyaje.

Аннотация: В данной статье среди актуальных вопросов выделяются определение приоритетных направлений системной реформы высшего образования в строительстве современного Узбекистана, качественно новый уровень подготовки высококвалифицированных кадров, обладающих современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами, самостоятельное мышление, модернизация высшего образования, развитие социальной сферы и отраслей экономики на основе передовых образовательных технологий. и наоборот.

Ключевые слова: когнитивный, психотерапевтический, конация, аффект, рецидив, фармакотерапия, интерпретация, стимул, Пиаже.

Annotation: in the construction of today's New Uzbekistan, setting priorities for the systematic reform of Higher Education, raising the process of training highly qualified personnel with modern knowledge and high spiritual and moral qualities, independent thinking to a qualitatively new level, modernization of higher education, development of social sphere and economy networks based on advanced educational technologies are reflected in the current issue.

Keywords: cognitive, psychotherapeutic, Conation, affect, ryesidiv, pharmacotherapy, interpretation, stimulus, Piyaje.

Kognitiv-bixevioral psixoterapiya – inson fikri va hulq-atvori bilan bog'liq muammolarini yengib o'tish uchun o'ziga baho berish qobiliyati, strategiyasi va yo'nalishlarini o'zgartirishga qaratilgan psixoterapevtik yondoshuv. Bu yo'nalish asoschisi amerikalik psixoterapevt A. Bek (1921 yil tug'ilgan). Kognitiv-bixevioral psixoterapiya kognitiv psixoterapiya (angl. *cognitive therapy*, 1967) negizida yaratildi. Kognitiv-bixevioral psixoterapiya ikki xil maktab, ya'ni kognitiv va bixevioral psixoterapiya negizida shakllanadi:

Kognitiv-bixevioral psixoterapiya quyidagi ko'rinishlarda bir-biridan farq qilinadi:

1. *Kognitsiya* – ma'lumotni esga olish, fikrida qayta ishlash, argumentatsiya qilish va anglab yetish kabi tushunchalardan iborat.

2. *Konatsiya* – maqsadga yo'naltirilgan xarakter, motivatsiya, instinkt, hohish va iroda kabi tushunchalardan iborat.

3. *Affekt* – hissiy reaksiyalar va kayfiyatdan iborat.

Kognitiv-bixevioral psixoterapiya quyidagi maqsad va vazifalar yechimini izlaydi:

1. Kognitiv xatolar va hulq-atvor buzilishlar sababini izlab topish.

2. Miyaga o'rnatilgan patologik fikrlar va shu sababli yuzaga kelgan hulq-atvor buzilishlarini korreksiya qilish.

3. Residiv holatlarining oldini olish.

4. Farmakoterapiya samarasini oshirish.

5. Ijtimoiy-psixologik muammolar yechimini topish.

Kognitiv-bixevioral terapiya, asosan, obsessiv-kompulsiv buzilishlar, xavotirli-fobik buzilishlar, miyadan ketmaydigan fikrlar nevrozi, hulq-atvor buzilishlari, ipoxondrik nevroz, sport tibbiyotida keng qo'llaniladi.

Kognitiv-bixevioral psixoterapiya avvalombor miyaga o'rnatilgan olib bemorga azob berayotgan salbiy tushunchalardagi fikrlar, ya'ni aybdorlik hissi, o'zini-o'zi kamsitish, fikrlarni bartaraf etishga qaratilgan. Bemor texnikani mustaqil bajarishni o'rgatishga qadar psixoterapevt nazoratida bo'ladi.

Psixoterapevtik muolaja texnikasi. Bemorning ko'zlari yumuq holatda bo'ladi. Undan miyasiga o'rnatilgan yomon o'y-hayollarning mayda detallarigacha diqqatini qaratish buyuriladi. O'sha negativ tushunchalardagi fikrlar ahamiyatlimi, ahamiyatsizmi farqi yo'q. Shu yo'l bilan barcha o'y-hayollar bir joyga jamlanadi. Hamma yomon fikrlar miyada jamlangach bemor barmog'i bilan psixologga ishora beradi (masalan, ko'rsatkich barmog'ini ko'taradi).

Bemor ishora bergan xavotir psixoterapevt dadil va jarangdor ovozda, "to'xtang" deb buyruq beradi. So'ngra psixolog bemordan ushbu so'zdan keyin xayoliga nimalar kelganini so'raydi. Odatda bu paytda bemorning negativ fikrlari o'chgan va yo'qolgan bo'ladi. Agarda ijobiy natija bo'lmasa, ya'ni miyadan yomon fikrlar o'chmasa, mashq bir necha bor qaytariladi. Ushbu mashq uyga vazifa qilib ham beriladi. Bemor o'ziga-o'zi buyruq berib shu mashqni uyda yolg'iz takrorlashi mumkin.

Psixologik bo'shliqni to'ldirish texnikasi. Miyaga o'rnatilgan fikrlarni o'chirishdan keyingi vazifa – bu negativ fikrlar o'rni pozitiv fikrlar bilan to'ldirish. Agar ushbu vazifa bajarilmasa, miyaga yana negativ fikrlar qaytib kelaveradi. Fanda antisipatiya degan tushuncha bor.

Antisipatiya – vahimiy fikrlarning yana qaytib kelishidan qo'rqish. Shu holat kuzatilmasligi uchun har bir seansda psixologik bo'shliqni pozitiv fikrlar bilan to'ldirib borish zarur. Aks holda bemor miyadagi negativ fikrlar orqali "o'zi bilan o'zi gaplashib yuraveradi". Bu holat esa obsessiyani kuchaytiradi va bemor yana azobli o'y-hayollar iskanjasida qoladi.

Psixoterapevtik muolajadan so'ng bemorga uy vazifasi beriladi. Bugungi kundan boshlab Siz faqat avval pozitiv fikrlar orqali o'zingiz bilan o'ziningiz gaplashib yurishingiz lozim. Psixoterapevtik mashqlar boshida bemor bilan "Pozitiv suxbat qurish" ssenariysini tuzadi Buni amalga oshirish uchun turli xil roliklar o'ylab topiladi. Olingan natijalarga qarab ushbu ssenariy bora-bora takomillashtirib boriladi.

Psixologik bo'shliqni to'ldirish metodi Albert Ellis tomonidan ishlab chiqilgan sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Bu maqsadda ABC-metodi qo'llaniladi. A- vaziyatni yuzaga keltirgan omil; V- avtomatik paydo bo'lgan xayol; S- emosional javob reaksiyasi.

AVS bilan ishlash algoritmi. 1. Muammo haqida so'raladi; 2. Muammoni tarqatishga kirishiladi; 3. S va A larga baho beriladi; 4. V bilan S ning o'zaro bog'liqligi tushuntiriladi; 5. V ga baho beriladi; 6. V bilan S bog'lanadi; 7. Bemorning tushunganlik darajasi o'rganiladi; 8. Uyga vazifa beriladi. Kognitiv psixoterapiya tarafdorlari insondagi barcha muammolar negativ fikrlash sababli kelib chiqadi, deb hisoblashadi. Muammo tashqi vaziyatlarni inson tomonidan quyidagi sxema bo'yicha interpretatsiya qilishidan boshlanadi: tashqi vaziyat (stimullar) → kognitiv sistema → interpretatsiya (xayollar) → hissiyot yoki hulq-atvor. «Xayollarimiz hissiyotimizda aks etadi, hissiyotimiz hulq-atvorimizni o'zgartiradi, hulq-atvorimiz bizning kimligimizni ko'rsatib turadi va unga qarab o'zgaralar bizga baho berishadi. Muammo bu dunyo yomonligida emas, biz uni qanchalar ko'p yomon deb bilishimizda, degan edi A. Bek (1967). A. Bek bo'yicha kognitiv-bixevioral terapiya – bu ma'lum bir tizimga asoslangan fikrlash va hulq-atvorni o'zgartirishga qaratilgan metodlar majmuasi. Ushbu metod asosida bemorni to'g'ri fikrlash va shu asnoda hulq-atvorini o'zgartirishga asoslangan o'rgatish texnikasi yotadi.

Psixoterapevt oldida turgan asosiy vazifalar: 1) sositumda yashash uchun insonga azob beruvchi avtomatik fikrlarni aniqlash; 2) mijozga ushbu o'y-xayollardan xalos bo'lishi zarurligini tushuntirish; 3) bemorni pozitiv fikrlar bilan ishlashga o'rgatib hulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish.

Avtomatik fikrlarni aniqlash bosqichlari:

Birinchi qadam. Bemor miyasiga o'rnashib qolgan, unga har doim azob beradigan va uning hulq-atvorini o'zgartirib yuborgan avtomatik fikrlarni izlab topishi va bir joyga jamlay olishi kerak;

Ikkinchi qadam. Avtomatik fikrlar aniqlangandan so'ng bemor ularni psixoterapevtga birin-ketin ovoz chiqarib aytib berishi kerak;

Uchinchi qadam. Psixoterapevt bemorni diqqat bilan tinglaydi, uning ifodalanishiga nazar soladi, bemorning hatti-harakatlarini kuzatib boradi va azobli fikrlar darajasini qog'izga belgilab boradi.

Avtomatik fikrlar– odamni o'zi bilan o'zi so'zlashib yurishiga majbur qiladigan va to'satdan paydo bo'ladigan o'y-xayollar. Avtomatik fikrlar har bir odamda mavjud bo'lib, ushbu fikrlarning azobli yoki azobsiz bo'lishi ularning mazmun-mohiyatiga bog'liq. Agar Sizga negativ fikrlar o'rnashib olgan bo'lsa, ular "miyangizni egovlayveradi, aqlingizni chaynayveradi" va og'ir his-tuyg'ular

manbaiga aylanadi. Buning oqibatida hulq-atvoringiz o'zgaradi va shunga munosib ravishda odamlarning Sizga nisbatan munosabati o'zgarib zanjirli reaksiya yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Charles Stangor. *Introduktion to Psychology*. 2011.
2. D.K. Schneider. *Instraduction to Educational technology*.
3. Karla A. Lassonde. *Introduction to Psychology*. University of Minnesota Libraries Publishing edition. 4. *Educational Psychology*, Kelvin Seifert and Rosemary Sutton, Switzerland, 2010, the Jacobs Foundation.
4. Karimova V.M., va boshqalar "Pedagogika. Psixologiya". O'quv qo'llanma. -T.: 2012. -380 bet.

MAKTAB AMALIYOTIDA ART-TERAPIYADAN FOYDALANISH

Ne'matullayeva Sarvinoz Xushvaxt qizi
TerDPI Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bolalar va o'smirlarning ruhiy salomatligi bugungi kunda nafaqat ota-onalar, balki o'qituvchilar jamoasi uchun ham muhim vazifadir. Maqolada maktab amaliyotida art-terapiyani qo'llash esa bolalar bilan ishlashning eng samarali usullaridan biridir ekenligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: biblioterapiya, drama terapiyasi, raqs terapiyasi, ertak terapiyasi, video va audio terapiya, qum terapiyasi.

Zamonaviy dunyoda ko'plab stressli vaziyatlar va hayotning juda tez sur'ati tufayli odamlar tobora ko'proq ruhiy kasalliklarga duch kelishmoqda. Ruhiy buzilishlar - bu odamning xulq-atvori va odatlariga ta'sir qiluvchi, uning to'liq hayot kechirishiga to'sqinlik qiladigan psixikaning o'zgarishi bilan tavsiflangan kasalliklarning keng doirasidir. Bolalar va o'smirlarning ruhiy salomatligi bugungi kunda nafaqat ota-onalar, balki o'qituvchilar jamoasi uchun ham muhim vazifadir. Sog'lom bola, avvalambor, o'zini va atrofidagi dunyoni biladigan, ijodiy, quvnoq, ochiq insondir. Maktab amaliyotida art-terapiyani qo'llash esa bolalar bilan ishlashning eng samarali usullaridan biridir.

Maslouning fikriga ko'ra, inson faoliyatining asosiy manbai bu o'zini o'zi anglash va o'zini namoyon qilish uchun doimiy intilishdir, ammo bu faqat mavjud bo'ladi. O'z-o'zini namoyon qilish yo'llari haqida gapirar ekan, Maslou go'zallik va ekstazning eng yuqori tajribasiga ishora qiladi. Psixoterapevtning vazifasi odamlarga ushbu daqiqalarni his qilishlariga yordam berish, ularning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratish, o'z-o'zini bilishga o'rgatishdir.

Klassik art-terapiya dastlab rasm, modellashtirish, fotografiya va grafika kabi tasviriy san'at turlarini o'z ichiga olgan. Biroq, zamonaviy dunyoda ijodkorlik va o'zini namoyon qilishning yangi turlari paydo bo'lmoqda. Hozirgi kunda biblioterapiya, drama terapiyasi, raqs terapiyasi, ertak terapiyasi, video va audio terapiya, qum terapiyasi va boshqalar juda ham mashhur.

MUNDARIJA

<i>SO'Z BOSHI. Toshqulov A.X. Tep DU rektori</i>	4
<i>Каримова В.М. Ўзбекистонда оила тадқиқотларининг илмий методологик муаммолари</i>	6
<i>Абдурашитов Н.Ф. Взаимосвязь детско-родительских отношений и продуктивной социальной включенности подростков как результат воспитания</i>	10
<i>Акрамова Ф. А. Оила mustahkamligini taъminlashda psixologik xizmat – innovatsion-psixologik yondashuv sifatida</i>	16
<i>Нишанова З.Т. Замонавий тадқиқотлар ва уларда кўп учрайдиган хатолар.</i>	20
<i>Kariyev A. Adaptation of fresh-year students at university: psychological aspects and ways of self-development</i>	22
<i>Жўраева С.Н. Педагогнинг ўз имижига бўлган муносабати</i>	26
<i>Шамсиев Ў.Б. Она холдинги – шахс шаклланишининг механизми</i>	31
<i>Муллабаева Н.М. Та'лим тизимидagi psixologik xavfsizlikni nazariy muammolari</i>	35
<i>Шарафутдинова Х.Г. Оилавий муносабатлар деструкцияси ва “Когнитив оилавий муносабат терапияси” усули</i>	38
<i>Умаров В.М., Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining ijtimoiy-psixologik muammolari (Alfraganus universiteti)</i>	45
I SHO'BA. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR, ISTIQBOLLARI.	
<i>Atabayeva N.B., O'.D.Y. Oiladagi muhitning o'smirlarda agressiv xulqni shakllanishiga ta'siri</i>	50
<i>Achilov N.A. Oilaviy munosabatlar destruksiyasi: muammo va yechimlar</i>	53
<i>Abramatova M. O'. Zamonaviy oilalarda empatiya qobiliyatini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.</i>	57
<i>Alixonova D. Sh., Xudoyqulova Sh.H. Oilada farzand tarbiyasining ijtimoiy-psixologik o'rganilishi</i>	60
<i>Alimova N.U. Farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni</i>	65
<i>Иманалиева Ж.Т., Усманова Э.З. Инновационно-психологические подходы обеспечения стабильности семьи</i>	69
<i>Bakiyeva S.X., Mengto'rayeva F.A. Nikoh munosabatlari ijtimoiy psixologiya muammosi sifatida</i>	73
<i>Bekkiyeva N.R. Sharq va g'arb mutafakkirlari qarashlarida huquqiy tushunchaning psixologik xususiyatlari</i>	76
<i>Boymuratov H., Xudoynazarov T. Oilaviy nizolar va ularni ijobiy bartaraf etish muammolari</i>	81
<i>Daminova M. S. O'smirlarda gender identiklik shakllanishining psixologik xususiyatlari</i>	82
<i>Fayziyeva M.X. Oilaviy munosabatlarni insonparvarlashtirishning psixologik</i>	85

<i>imkoniyatlari</i>	
<i>Жабборов А.М., Жабборова И.А. Направления психотерапевтической услуги по обеспечению здоровых психологических отношений между молодой невестой и невестой в семье</i>	90
<i>Матажонова Ш.У. Psixodiagnostika metodikalari ilmiyligining psixometrika mezonlarini ta'minlash jarayonini optimallashtirish masalasi</i>	94
<i>Narmuradova R.U. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi: notinch oilalar</i>	97
<i>Қодиров У.Д. Экстремизм ва терроризм профилактикасида оиланинг ўрни</i>	101
<i>Sattorova M.D. Zamonaviy psixologiyada nazariy va amaliy tadqiqotlar</i>	105
<i>To'raxonova M. A. Sharq mutaffakirlarining oila mustahkamligi xususidagi qarashlarining nazariy ahamiyati</i>	108
<i>Tosheva M. Yu. O'smirlarda yuzaga keladigan stress holatini o'rganish ijtimoiy-psixologik muammo sifatida</i>	111
<i>Yo'ldoshev T.A. Yoshlarda oilaga mas'ulliyatli munosabatlarni pedagogik-psixologik asoslarini shakllantirishning dolzarbligi va zarurati</i>	114
<i>Сафарова З.Р., Раджабзода Н.М.. Влияние развода на взаимоотношения и социализация детей из неполных семей</i>	118
<i>Кутлуз-Бек Бекмуратович Кадыров О психологической рациональности более частого обращения к анализу религиозных источников исторического периода в развитии прикладных наук</i>	123
<i>Хакунова Ф.П., Берсирова А.К. Формирование у студентов позитивного отношения к созданию семьи (Россия)</i>	125
<i>Suyunova D.H. Zamonaviy oilada farzand qobiliyatlarining namoyon bo'lishi (TerDU)</i>	129
<i>Babajanova N.R., Imanaliyeva J.T. Innovative psychological approaches to ensuring family stability (Uzbekistan)</i>	131
II SHO'BA. OILA MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR	
<i>Abdullayeva Z.I. Maktab o'quvchilarida iqtidorning shakllanishida oilaviy muhitning ta'siri.</i>	136
<i>Amirova N.U. Oila mustahkamligining ijtimoiy -psixologik shart sharoitlari.</i>	140
<i>Axmatova G.X. Oilada gender munosabatlar va uning etopsixologik kelib chiqishi.</i>	142
<i>Baratova D.O. Noto'liq oilada tarbiyalanayotgan bolalarga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlar</i>	146
<i>Botirov Z. Oilaviy munosabatlarda o'smirlar shaxsini tarbiyalashning psixologik asoslari</i>	149
<i>Burxonova Y.I. Nikoh va oilaviy munosabatlarning psixologik asoslari.</i>	152
<i>Dawkeeva A, Kurbanbaeva J. Oilaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni</i>	154
<i>Goyibnazarova S. Sh. Oila munosabatlarida ijtimoiy-psixologik omillar</i>	156
<i>Ҳасанова С.А. Oilaviy ҳаёт масалалари шарқ қадриятларидан бири</i>	159

<i>сифатида таъқин этилиши</i>	
<i>Jovliyeva N. U. Oilaviy munosabatlarda nizolarni bartaraf etishda psixologik konsultsiyaning ahamiyati ((TerDU)</i>	162
<i>Karavaeva Ю.Х Шахс маънавий камолотида - оила, маҳалла, жамият ҳамкорлиги ((TerDU)</i>	166
<i>Maxmatqulov F.A.O'smirlarning oiladagi bo'ladigan janjallarga ijtimoiy munosabatlari ((TerDU)</i>	168
<i>Muratova Sh. O'.Bolaning psixik rivojlanishida o'yin faoliyatining ahamiyati va oilaviy munosabatlarning o'rni</i>	171
<i>Muxammadiyeva K. O.Ota-onaning bolaga noto'g'ri munosabatining bola ruhiyatiga ta'siri psixologik muammo sifatida</i>	173
<i>Norsafarova Z.O'. Shaxslararo munosabatlarning oilada sog'lom psixologik muhitdagi o'rni va ta'siri.</i>	177
<i>Nurqulova G. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida kognitiv faollikni rivojlantirishda oilaning o'rni va roli</i>	178
<i>Qodirova A.B Oila ijtimoiylashuvning muhim instituti sifatida</i>	181
<i>Otaqulova S.E.Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi oila-davlat va jamiyat ardog'ida</i>	185
<i>Turobova M.A. Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy psixologik omillari</i>	187
<i>To'qboyeva F.,Elmirzayev S.O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila tarbiyasi.</i>	190
<i>To'qboyeva D.Z.,Mahkamova G.K. Oila mustahkamligini ta'minlashda innovatsion -psixologik yondashuvlar</i>	194
<i>Usmanova Z.T.Oila mustahkamligini ta'minlash – dolzarb psixologik-pedagogik muammo sifatida</i>	196
<i>Xolmuminova O.J.Oilada ekologik huquqiy tarbiya berishning pedagogik xususiyatlari</i>	199
<i>Xoliqov U.Q.-Sog'lom oilada qizlarni aqliy tafakkurini rivojlantirishda shaxmat o'yinlaridan foydalanish.</i>	205
<i>Xudoyberdiyeva Z.Sh. Oilada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish zaruriyati (TerDU)</i>	208
<i>Yuldosheva F.M.Oilaviy munosabatlarning bola tarbiyasiga ta'siri</i>	213
<i>Жолдошева А.О. Абдуллаева Р.М. Оила мустаҳкамлиги - сифатли ҳаёт гарови (ЎУМУ) (TDPU)</i>	216
<i>Berdiyeva G.J. Talabalar va o'qituvchilar o'rtisidagi nijajlarning xususiyatlari</i>	221
<i>Xudoyorova M.M. Oshlarda depressiv va agressiv sindromlar namoyon bo'lishida internet ta'sirining psixologik jihatlari</i>	224
<i>Ungboyeva U.S. Reabilitatsiya markazlarida xotin-qizlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari (QarDU)</i>	226
<i>Bekova Sh.D. Sharq mutafakkirlarining oilada shaxslararo munosabatlarning bola tarbiyasiga ta'siri</i>	230

<i>O'roqov A. Sinf rahbarining o'quvchilarni pedagogik-psixologik o'rganish metodikasi</i>	234
<i>Korjovov B. hozirgi kunda maktab o'quvchilarni kasb-humarga yo'naltirishning ahamiyati (TerDU)</i>	236
<i>Буркова Л.Л., Панеш Б.Х. Семейные ценности как стабилизирующий фактор взаимоотношений в семье(Rossiya)</i>	238
<i>Ismailov M.K., Xudoyberdiyeva Z.Sh. Oilada bolani tarbiyalash va rivojlantirishning asosiy shartlari (TerDU)</i>	243
III SHO'BA. OILAVIY MUNOSABATLAR DESTRUKTSIYASINI PSIXOLOGIK TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI: PSIXOPROFILAKTIKA, PSIXODIAGNOSTIKA, PSIXOKORREKTSIYA.	
<i>Axnazarova D, G'aniyeva U. Oila va gender tushunchalarining mohiyati, ilmiy-nazariy asoslari.</i>	246
<i>Abdullayev J.A Oila-muqaddas dargoh. (TerDU)</i>	248
<i>Билолова Ш.Ф. Современные подходы к изучению интеллектуального развития детей</i>	251
<i>Bozorova M.Q. Zamonaviy oila mustahkamligini ta'minlashda milliy tarbiyaning o'rni.</i>	254
<i>Bozorova M.Q, Nurbayeva X.U. Oilalarda xalqona tarbiya usullarining bugungi kundagi holati</i>	257
<i>Dawkeeva A,Dosjanova N. Er-xotin o'rtasidagi nizolar va uning kelib chiqish sabablari</i>	262
<i>Haydarova S.S. Talabalarning guruhdagi statusida oilaviy munosabatlarning ta'siri</i>	265
<i>Imonova M.B.Oilada sibling munosabatlarni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari</i>	267
<i>Ismoilova N.Z., Raximova D.M. Oilaviy munosabatlar - o'smirlarda asosiy stressogen omil sifatida Toshkent davlat pedagogika universiteti</i>	270
<i>Jumayeva G.O'.Oilaviy munosabatlarda keksalar tajribasining ahamiyati</i>	273
<i>Jo'rayev O'.T. Irodaviy sifatlarni shakllantirishda oilaviy qadriyatlarining tutgan o'rni</i>	274
<i>Karayeva Yu.X., Jumaeva M. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosida farzand tarbiyasi.</i>	276
<i>Kayumova G.N. Nikoh qurish motivlarining oilaviy munosabatlarga ta'siri muammosi va yechimlari</i>	279
<i>Qorabayev A.A. Oilaviy munosabatlardestruksiyasining oldini olishda psixologik tadbirlarning o'rni</i>	282
<i>Rashidova Z.Sh.Ota-onalarning kelishmovchilik munosabatlarining bolalarning ruhiy salomatligiga ta'siri</i>	284
<i>Sog'inov N.A.Oilada yuzaga kelishi ehtimol bo'lgan destruktiv munosabatlar profilaktikasi va psixokorreksiyasida milliy qadriyatlarining o'rni</i>	288
<i>Ne'matullayeva F. Jadal rivojlanayotgan globallashuv davrida yoshlar ruhiyatiga milliy an'ana va urf-odatlarini singdirishning muhim tomonlari</i>	292

<i>Toshpo'latova O'.B., Choriyeva S. O'smirlarning oilada o'z- o'ziga baho berishning psixologik xususiyatlari</i>	294
<i>Yaxoyeva M.H., Kayumova G.N. Oilada destruktiv munosabatlar psixologiyasi. oilaviy munosabatlarda o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik xususiyatlari</i>	297
<i>Shamsiyeva G.H. Oilaviy munosabatlarda o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik xususiyatlari</i>	299
<i>Шарафутдинова Х.Г. Оилада шахслараро муносабатлар деструкцияси омиллари тадқиқи (TerDU)</i>	301
<i>O'roqova Sh. Oilaviy munosabatlar destruksiyasini psixologik tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari: psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya</i>	307
<i>Xudoyqulova D.N. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari va psixik rivojlanishida oilaviy destruksiyaning o'rmi</i>	311
<i>Xudayberdiyeva S.B. Oilaviy xayot sikllarida shaxslararo munosabatlar etnopsixologik xususiyatlari va barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy omillari</i>	313
<i>Normurodova N.B. Quality of life and psychomotoric changes in the development of children with tourette syndrome (Tashkent medical academy)</i>	319
<i>Rustamova N, Sharafutdinova X.G. Farzand tarbiyasidagi tipik muammolar (TerDU)</i>	324
<i>Akramova F.A., Orziqulova Ch.R. O'smirlarning emosional hislari va antropometrik belgilari tasirida destruksiyani yuzaga kelishi. (NIZOMIY nomidagi TDPU)</i>	327
<i>Akramov M.R. Mutaassib shaxslar bilan jamoaviy tartibda psixologik suhbat olib borishning o'ziga xos jihatlari (O'XIA)</i>	329
IV SHO'BA. IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI	
<i>Аблакулов Ш.Д. Профессиональные творческие компетенции при подготовке будущих педагогов(NIZOMIY nomidagi TDPU)</i>	333
<i>Абдурасулов Р.А., Ибайдуллаева У.Р, Ўсмирларнинг ижтимоий мослашувида ўзаро муносабатларнинг аҳамияти. (JDPU)</i>	336
<i>Абдиразокова Г.А. Ўсмирлар иқтидорини ривожланишининг психологик хусусиятлари ва иқтидорлилик мезони (TerDU)</i>	342
<i>Abdulazizova M. Z. O'qituvchilarda kasbiy stress va uning emotsional holatiga ta'siri (Termiz t 20-maktab)</i>	346
<i>Alixanova Yu. Komil insonni tarbiyalashda sharq allomalarining qarashlari</i>	349
<i>Axmedov Sh. A. Muloqotda tilning ahamiyati va psixolingvistika(TAFU)</i>	351
<i>Алмарданова С. Касбий шаклланишининг психологик муаммо сифатида тадқиқ этилиши (TerDU)</i>	354
<i>Aminova D.O. Professional ta'lim o'quvchilarida kasbiy imijni rivojlantirishning omillari (TISU)</i>	361
<i>Botirova.N.B. Islom va xristianlik manbalarida "sabr" fenomenining</i>	364

<i>o'rganilishi (O'XIA)</i>	
<i>Бекболаев Ж.Ж. Талабаларда ижтимоий установакалар шаклланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари(GDU)</i>	367
<i>Beknazarova L.S. Bilimlarni o'zlashtirishda pedagogik va ijtimoiy-psixologik innovatsion yondashuv (QarDU)</i>	372
<i>Бозорова М.Қ., Омонова Н. Значение национального образования в развитии культуры общения (TerDU)</i>	375
<i>Bozorova R.Talabalar da iroda yetishmasligi va uni yuzaga keltiruvchi psixologik omillar (TerDU)</i>	380
<i>Эргашев Н.Х Шахс деструкцияси психопрофилактикасида мусиқанинг ўрни (TDPI)</i>	385
<i>Djurayev T.S O'smirlarni milliy qadriyatlar asosida komil inson qilib tarbiyalashning psixologik jihatlari (TerDU)</i>	388
<i>Eshmo'minova X.R. Amaliyotchi psixologning kasbga yo'naltirish faoliyatining muammo va yechimlari (TerDU)</i>	392
<i>Eshnazarov M.K. Tushunish va tushuntirish muammosining pedagogik va psixologik tahlili (TerDU)</i>	394
<i>Эшкувватов И.С.Теоретические основы совершенствования навыков системного мышления у работников социальной работы (TerDU)</i>	398
<i>Ibragimova Z.O. Ijtimoiy tarmoqlarning o'spirin o'quvchilar dunyoqarashi shakllanishidagi ta'siri (TU)</i>	401
<i>Жураева В.Ф. Психологическое влияние религии на формирование конформизма у детей TerDU</i>	403
<i>Yo'ldoshev I. Alisher Navoiy hayoti va ijodida psixologik omillar (O'DSMI)</i>	407
<i>Jo'rayev A.Q. Milliy an'ana va qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati (TISU)</i>	410
<i>Jo'rayeva G.M. O'quvchilardagi agressiv munosabatlarni kelib chiqish sabablari va profilaktika qilish imkoniyatlari (DIPU)</i>	414
<i>Konratbaeva A. Kichik maktab yoshida agressiv xulq-atvor psixodiagnostikasi (Ajiniyoz nomidagi NDPI)</i>	418
<i>Luqmonov A.S. homiladorlik davrida emosional holatlar namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (G'ijdivon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi)</i>	422
<i>Muratova D.E.Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qiziqishini rivojlantirish (TDPU)</i>	426
<i>Мирзаев М.Ж. Ёшлар маънавий тафаккурини тарбиялашда мактаб, оила ва маҳалла ҳамкорлигининг ўрни ва аҳамияти (TerDU)</i>	429
<i>Мурадуллаева Д.М. Деструкциянинг талабалар ижтимоий интеллектига таъсири (TerDU)</i>	433
<i>Normo'minova D.E. Xavotirli psixik holatlarda kognitiv psixoterapiyani qo'llash va tahliliy darajasi (TerDU)</i>	436
<i>Ne'matullayeva S.X. Maktab amaliyotida art-terapiyadan foydalanish (TDPU)</i>	439
<i>Ne'matullayeva F. Ijtimoiy muammolar sifatida o'smirlarda muammoli</i>	442

<i>internetdan foydalanishni o'rganish (TerDU)</i>	
<i>Odinayeva G. Sh. Siyosiy-huquqiy madaniyat targ'ibotini amalga oshirish xususiyatlari (TMTI)</i>	446
<i>Obidova M.U.O'smirlar xulq atvori shakllanishidagi ijtimoiy psixologik muammolarni bartaraf etish (SDU)</i>	450
<i>Панеш Б.Х., Буркова Л.Л. Методы педагогического взаимодействия с родителями младших школьников в кризисный период 7 ЛЕТ (Rossiya)</i>	452
<i>Qilicheva S.B.Sharq allomalari asarlarida stressga barqarorlik muammosining talqini (Nizomiy TDPU)</i>	456
<i>Қўлмаматова Ф.Қ. Ёшларда деструктив хулқ-атвор шаклланишининг психологик детерминантлари (DTPI)</i>	458
<i>Rahmonova D.Z. Voyaga yetmaganlar orasida xulqi og'ishganlik - psixologik muammo sifatida</i>	461
<i>Rajabov O.R. Talaba-yoshlarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirishning asosiy omillari (GDU)</i>	464
<i>Kudratov A.I Shaxs ma'naviy ehtiyojlariga ta'sir ko'rsatuvchi ob'yektiv hamda sub'yektiv shart-sharoitlar va psixologik omillar (QMII)</i>	466
<i>Raxmanova D.F. Inspektor-psixolog kasbiy kompetentligini takomillashtirish omillari (RTU)</i>	472
<i>Sa'dullayev A.A. Kurashchilarni musobaqalarga psixologik tayyorlash va havotir hissini yengishning psixologik tavsifi (QIPU)</i>	474
<i>Saydaliyeva M. Psychological methods of education and development according to the child's temperament (TerDU)</i>	479
<i>Sultonova O'.N. Hozirgi zamon fizikasining asosiy muammolari (TMTI)</i>	482
<i>Sultonova O'N, Raximberdiyev O. Kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish. (TMTI)</i>	486
<i>Садикова Р.С. (ЎшМУ), Абдуллаева Р.М.(Низомий номидаги ТДПУ) Касбий фаолият самарадорлиги мезонлари</i>	489
<i>Salimov I. Lasbiy kompetensiyani shakllantirishning psixologik masalalari (TerDU)</i>	493
<i>Турсунов Л.С. Ёшлардаги деструктив хулқни ўзигахос когнитив ижтимоий – психологик индикатори (Nizomiy TDPU)</i>	496
<i>Toshpulatova D. A. Agressiv xulqni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar</i>	501
<i>Turorova M.S. Bo'lajak tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligining psixologik xususiyatlari (QarDU)</i>	504
<i>Тиллашайхова Х.А. Социально-психологические характеристики социально-экономической компетентности студентов (TGPU)</i>	508
<i>Тиллашайхова Х.А. Психологические особенности студента и активизация его познавательной деятельности (TGPU)</i>	512
<i>Turdiqulov K.M. Keksalarning bolalar axloqiy fazilatlarini tarbiyalashdagi o'rni (TerDU)</i>	516
<i>Уракова Ф.К. Достижение оптимального уровня взаимодействия семьи</i>	520

<i>и школы в современной образовательной практике (Rossiya)</i>	
<i>Usmonov N.A Barkamol avlodni voyaga yetkazishda ma'naviy tarbiya (8-IDUM psixologi)</i>	524
<i>Ximmataliyeva M.I. Shaxsda irodaning yuzaga kelishi, rivojlanishi va buzilish bosqichlari (TerDU)</i>	527
<i>Xolturayev A.P.Oliy ta'lim muassalari o'qituvchilarida kreativlikni yondashishda psixologik jarayoning roli (TDPI)</i>	531
<i>Xudoyqulova G.B.O'smirlarni stressli vaziyatlardan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari</i>	536
<i>Xudoyqulova Sh.H. Ilk o'spirinlik davrida intellektual rivojlanish xususiyatlari (TerDU)</i>	539
<i>Xayrullayeva M.X. Jamiyatimizda yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar (TerDU)</i>	542
<i>Xurramova M.R.O'quvchilarni tarbiyalashda ota –ona va o'qituvchi hamkorligidagi harakatlari ta'lim sifatini yaxshilashda tutgan o'rnini tadqiq etish (TERDU)</i>	545
<i>Xudonazarova N.Sh. O'smirlarda altruizm rivojlanishining psixologik xususiyatlari (TerDU)</i>	548
<i>Xudayberdiyev R.X. Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (TerDU)</i>	550
<i>Xolmuminova D.T. Talabalar xotirasini mustahkamlashning psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish (DPPI)</i>	554
<i>Холиёрова М.Б. Талабалар коммуникатив компетенцияси компонентлари (Termiz sh 11-maktab)</i>	556
<i>Zaripov O.M. Shaxs salomatligini ta'minlashning omillari va ko'rsatkichlari (O'Z FinPI)</i>	558
<i>Zokirova T.B.Ong va ong osti sirlari haqida falsafiy qarashlar (TerDU)</i>	561
<i>Sharafullaeva Sh.K.Yetuklik davri inqirozida destruktiv munosabatlarning paydo bo'lishi (TerDU)</i>	565
<i>Shahobiddinova M.A. Ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishning dolzarbligi, muommolari va yechimlari (TerDU)</i>	568
<i>Shomurotov U.M., Meligaliyeva Yu.A. shaxsiy agressiyalarni davolashda psixologik xizmatning o'rne (DTPI)</i>	571
<i>Sheraliyeva Sh.Sh. Bolalarda iqtidorning shakllanishida ota-onaning o'rne (TerDU)</i>	574
<i>Shukurova D.R. Bo'lajak tarbiyachilar kasbiy shakllanishi jarayonidagi psixologik omillar ta'siri (QarDU)</i>	576
<i>Shoimova A.S. Ta'lim va tarbiya jarayonini o'quvchilarning gender xususiyatlari asosida olib borish mexanizmi (TDPI)</i>	578
<i>Shabbazova D.R. O'quvchilarda shaxs xususiyatlari va qadriyatlarining o'quv faoliyatidagi roli muammosining psixologik-pedagogik talqini (TDPI)</i>	582
<i>Choriyeva S.A. O'quvchilarning emotsional shakllanishida muloqotning roli (TerDU)</i>	585

<i>Xo'jamova K.T. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantirish usullari (SAMDU)</i>	588
<i>Кенжабоев А.Э. Олий таълим: миллий кадриятлар асосида ёндашув</i>	590
<i>Бердиева М.М. Муратова Д. Дошкольное образовательное учреждение и семейное партнерство (Тер. гос.пед.институт)</i>	592
<i>Safarov N.H. Fanlarni samarali o'qitishning pedagogik va psixologik asoslari</i>	595
<i>Yakibova D.Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni (TerDU)</i>	598
<i>Muratova S.Ch. Surxon raqs san'atining paydo bo'lish tarixi va ahamiyati (Toshkent amaliy fanlar universiteti)</i>	602
<i>Istamova Sh.I. Boshqaruvda xotin-qizlarning o'rni: sohadagi yutuq va kamchiliklar (TerDU)</i>	607
<i>Шариф Ёкубов Кутоб-ёшлар сирдоши (ТерДУ)</i>	610
<i>Qarshiyeva S.B., Qulmamatova F.Q. The similar meaningful expressions between in eastern and western countries (Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy)</i>	614
<i>Qudratullayev J.I., Sharafutdinova X.G. O'quvchilarda stressga qarshi kurashish strategiyasini shakllantirish (TerDU)</i>	615
<i>Donayev D.S., Bozorov D.Yu. Psixologik xizmat zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish manbai sifatida. (TerDU)</i>	618
<i>Нарбашева М.А. Оилада шахслараро муносабатларнинг позитив муҳитга таъсири (ТерДПИ)</i>	619
<i>Qulmamatova F.Q., Valijonova L. V. Informatika fanining o'quvchilarga psixologik ta'siri. (Denov tadbirkorlik va pedagogika institute)</i>	625
<i>Shukurov R. Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida yuzaga keluvchi nizolar (Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti)</i>	629
<i>Akbarov U.Q. Yoshlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik masalalari (TerDPI)</i>	631
<i>Mamadaminova N. Oila mustahkamligini ta'minlashda innovatsion-psixologik yondashuvlar (Polsha)</i>	636
<i>Konratbaeva A., Ramanova M. Ooiladagi inqirozlarning psixologik va pedagogik adabiyotlarda o'rganilishi (Ajiniyoz nomidagi NDPI)</i>	639
<i>Axmedov B.T. Muhabbat hislarining turlari va uning nazariy asoslari (TerDPI)</i>	643
<i>Латифзода С.З. «Карточный вариант методики ММПИ Сомона Латифзоды» и ее роль в психоконсультации. (Таджикский национальный университет)</i>	647
<i>Салихов Н.С. Методика «пустые клетки» для диагностики аналитического уровня теоретического мышления (Таджикский национальный университет)</i>	650
<i>Матараимова Z. Sh. O'quvchi yoshlarda pedagogik kompetentlik va</i>	653

<i>keativlikni shakllantirish (TerDU)</i>	
<i>Muratova D.E. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitivqiziqishini rivojlantirish. (TerDPI)</i>	656
<i>Otaqulova S.E. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi oila-davlat va jamiyat ardog'ida (TerDPI)</i>	659
<i>Choriyev S. Hozirgi zamon psixologiyasida psixokonsultant shaxsiga qo'yiladigan talablarning ahamiyati.</i>	665